



2019-yilning yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1 trln. 155,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **90,5 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **37,0 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **46,9 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 trln. 155,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 90,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 4,8 % ga o'sishi hisoblanadi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (96,4 %), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat (91,3 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (74,2 %) pasaydi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 74,2 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 91,3 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 96,4 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 99,5 foiz)

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan osh tuzi 2,3 martaga, suyuq neft 25,5 % ga, un 13,1 % ga oshdi. Shu bilan birga, paxta yog'li (58,7 %), aroq (72,7 %), gazoyil (85,8 %) pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	--------------------------

Ko'mir, ming t.

57,8



50,6

87,6



Neft, ming t.

27,6



26,6

96,2



2018-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Osh tuzi, ming t.

1,6



3,7

2,3m


Qum, ming t.

9,9



11,8

119,4



Chaqiq tosh, ming t.

9,7




22,3


2,3m


Neft qazib olish, ming.t


Ko'mir qazib olish, ming.t



Chaqiq tosh qazib olish, ming.t




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 8,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-aprel oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 23,3 % ni (17,9 %) va quyi texnologiyali - 63,5 % ni (63,8 %) tashkil etdi.






Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,8 % (2018-yilning yanvar-aprel oylarida 4,5 %), yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarishning ulushi – 2,6 % (2,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 31,5 % (28,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % (0,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 38,4 % (44,4 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar - 2,6 martaga, osh tuzi 2,3 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,7 martaga, un - 13,1 %, kepak - 12,1 %, non - 6,3 %, yirik shoxli qoramollar uchun ozuqalar (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari) – 3,7 % ga oshdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Paxta tolasi, ming t.		
37,3		7,1	19,0 ↓
	O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.		
6,3		3,7	58,7 ↓
	Un, ming tn		
33,3		37,7	113,1 ↑
	Aroq, ming l.		
500,0		363,8	72,7 ↓
	Dizel yoqilg'isi, ming t.		
4,3		3,6	85,8 ↓





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 33,2 % ga oshgani holda, elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi (95,0 %) o'tgan yilga nisbatan pasayganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,0	Elektroenergiya, mln.kVt/s 	1,0	- ↑
37,1	Issqlik energiyasi, ming Gkal 	26,8	72,2 ↓

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi - 19,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,5 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 19,6 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar – 11,9 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) – 5,0 %ga oshganligi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan (40,5 %) kamayganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

4,6



4,9

107,6



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

1,5



0,6


41,2



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 427,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 7,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,0 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,4 % dan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida 56,4 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 44,6 % dan 43,6 % ga pasayganligi kuzatildi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 233,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-aprel



2019 yil yanvar-aprel




- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,0 %), Jarqo'rg'on (21,5 %), Denov (13,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning jamiga nisbatan ulushi, %



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 24,0 %), Sho'rchi (14,1 %) tumanlari va Termiz shahri (15,3 %) da ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sishi 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 542,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Termiz (99,3 %) va Uzun (96,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Termiz shahrida (32,2 %), Jarqo'rg'on (27,3 %), Sho'rchi (29,5 %), Sherobod (36,2 %) tumanlarida kuzatildi.


2019-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2301 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 499 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,7 %) Termiz shahriga, 251 tasi (10,9 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 may holatiga)



2019-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 465 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 16,6 foizi Termiz shahri, 14,4 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (76) 223-07-24